

**Beginova Gulshoda Jahon qizi**  
*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute,  
Xorijiy tillar kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ma'lumki, «har qanday ilmiy muammoning o'rtaga qo'yilishi va bu sohada tadqiqot ishlarining boshlanishi ma'lum bir tarixiy davr bilan bevosita bog'liq bo'lishi shubhasizdir». Zero, tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini bilmay turib, uning hozirgi holati borasida biror to'g'ri fikr bildirish amri mahol. “Ichki qurilishi jihatidan til ma'lum miqdordagi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab tizimdir.” Til inson hayotida muhim rol o'ynaydigan xodisadir. Kishining butun hayoti til bilan bog'langan bo'lib, til yordamida kishilar o'zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, inson tili nihoyat darajada murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan xodisadir.

**Tayanch tushunchalar:** dinamik stereotip, semasiologiya, fraza, takt, abzas, matn, konstitutiv,

**Abstract:** It is known that "the creation of any scientific problem and the beginning of research in this field are undoubtedly directly related to a certain historical period." After all, without knowing the essence of the problem under investigation, it is impossible to make a correct opinion about its current state. "In terms of internal construction, a language is a complex system consisting of a set of a certain number of closely related language units and rules for the use of these units." Language is a phenomenon that plays an important role in human life. The whole life of a person is connected with language, and with the help of language, people have the opportunity to exchange ideas. At the same time, human language is an extremely complex, contradictory phenomenon.

**Basic concepts:** dynamic stereotype, semasiology, phrase, tact, paragraph, text, constitutive,

**Аннотация:** Известно, что «создание любой научной проблемы и начало исследований в этой области несомненно напрямую связаны с определенным историческим периодом». Ведь не зная сути исследуемой проблемы, невозможно составить правильное мнение о ее нынешнем состоянии. «По внутреннему построению язык представляет собой сложную систему, состоящую из совокупности определенного числа тесно связанных между собой языковых единиц и правил употребления этих единиц». Язык – явление, играющее важную роль в жизни человека. Вся жизнь человека связана с языком, и с помощью языка люди имеют возможность обмениваться идеями. В то же время человеческий язык представляет собой чрезвычайно сложное, противоречивое явление.

**Основные понятия:** динамический стереотип, семасиология, словосочетание, макт, абзац, текст, конститутив,

Xar qanday til fonetik tuzilish, grammatik qurilish va lug'at tarkibidan tashkil topadi. Tilning ushbu tarkibiy qismlari muayyan qonuniyatlar asosida o'zaro bog'lanib, butun bir tilni hosil qiladi, til mazkur birikmalar negizida uzviy bog'langan tizimni tashkil etadi. Tilning rivojlanishi, ichki qurilishi, tilning murakkab tizim ekanligi jahon tilshunos olimlari V.V. Vinogradov, A.M. Peshkovskiy, L.V. Sherba hamda o'zbek tilshunos olimlari Sodiqov A, Abduazizov A, Irisqulov M, Usmonov S, Rahmatullayev Sh, Ne'matov H hamda Xayrullayev X kabi tilshunoslarning asarlarida yoritilgan. Til kishilik jamiyatida eng muhim aloqa quroli bo'lib, insoniyatning uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyoti jaroyinida yaratilgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarni saqlaydigan va avloddan-avlodga yetkazib beradigan asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Tilning tabiatni, mohiyati, kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi kabi muhim masalalar ilmiy o'rganishni talab qiladi.

Umuman, til kishilik aloqa-munosabatining eng muhim vositasi sifatida jamiyat bilan uning madaniyati, turmush va mehnat faoliyatida tildan keng va har tomonlama foydalanib kelayotgan barcha a'zolari bilan uzviy aloqada bo'lib kelmoqda. Tilning jamiyatdagi bu vazifasini uning jamiyat, kishi ongi va fikrlash qobiliyati bilan aloqasini aniqlamay turib, til sistemasi, uning birliklari va kategoriylarini chuqur anglab bo'lmaydi. Shakl, ma'no va qo'llanish har bir leksik yoki grammatik birlikda o'rganiladigan uch tomondir. Ular bilan tanishish o'quv birligini o'zlashtirishning boshlanishi demakdir. Ushbu birlik xotirada saqlanishning asosiy shartlaridan biri uni eshitish va ko'rish sezgilarini yordamida idrok qilishdir. Shu paytda til birligi mashq qilish bosqichidan o'tadi. Mashq qilish yo'li bilan o'rganilayotgan til hodisalari mustaxkamlanadi, ularga oid dinamik stereotip shakllanadi. Ushbu dinamik stereotip nutq jarayonida operatsiya maqomida ishga tushadi. Mashq qilishda mashqlar miqdori va sifatiga, ya'ni nechta va qanday mashq bajarish masalasiga alohida e'tibor beriladi. Mashq qilish chog'ida o'quvchi o'zlashtirayotgan ko'nikma muallim nazorati ostida bo'ladi, Nazorat qilishning eng tejalish usuli test o'tkazishdir. Qo'llash davrida axborot almashish (ya'ni malaka hosil qilish) mashqlari bajariladi. O'quvchilarning og'zaki va yozma fikr almashishlari jarayonida qo'llash metodi qo'l keladi. Oldin o'rganilgan material endi axborot yetkazishlarni olish maqsadiga bo'yundiriladi.

Metodlar faoliyat ko'rsatkichi, o'z navbatida metodik harakatlar orqali amaliyotda kursatiladi. Masalan: leksikaning ma'nosini tarjimasiz ochish usuli, matndan axborot olish usuli, grammatik birlikni leksik o'rgatish usuli, talaffuzni taqlid yo'li bilan o'rgatish va hokazo. Aniq usullar majmuasi jarayon metodini tashkil etadi. Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilning ichki qurilishini o'rganishdir. Xar bir sathning o'z birliklari va tushunchalari bo'lib, ular bir-biridan farqlanib turadi. Masalan, fonetik-fonologik sath lug'at sathidan, lug'at sathi grammatik sathdan

farqlanadi. Ammo, ushbu sathlar o'zaro bog'liq ravishda butun til tizimini tashkil etadi. Til tizimini tashkil etgan asosiy sathlar quyidagilar: 1. Fonetik-fonologik sath. 2. Lug'at sathi. 3. Grammatik sath. Fonetik-fonologik sath. Tilning bu sathi til tizimidagi nutq tovushlarini o'rganadi. Fikr almashish uchun foydalaniladigan so'zlar va gaplar, albatta, tovushlar tizimida o'z ifodasini topadi. Tilning tovush tizimini turli tomondan o'rganish mumkin, chunki nutq tovushlari o'z tabiatiga va til tizimida bajaradigan funksiyasiga ko'ra murakkab xodisadir. Fonetika tilning boshqa qismlari va sathlari bo'lgan morfologiya va sintaksis, leksika va uslubiyat bilan uzviy bog'liqdir. Nutq fonetik jihatdan fraza, takt, bo'g'in va nutq tovushlariga ajraladi. Fraza nutqning eng katta fonetik birligi bo'lib, ikki tomondan pauza bilan chegaralanib, o'ziga xos ohangga ega bo'ladi. Frazalar taktdan tashkil topgan bo'ladi. Frazaning ikki kichik pauza orasiga joylashgan va yagona urg'u bilan talaffuz qilinadigan bir yoki bir nechta bo'g'inning yig'indisiga takt deyiladi. Frazada nechta urg'u bo'lsa shuncha takt bo'ladi. Takt bo'g'inlardan tashkil topadi. Bo'g'in bir yoki bir nechta tovushdan tashkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir. Fan, texnika, madaniyatning rivojlanish jarayoni lug'at sathining doimiy o'zgarib turishini taqozo etadi. Shunga ko'ra, tilning lug'at sathi paydo bo'lishi va qo'llanilishi doirasi jihatdan bir-biridan farqlanadigan bir necha qatlamlardan tashkil topadi. Lug'at sathining asosiy birligi hisoblangan so'z yordamida kishilar predmet va hodisalarini ifodalaydilar; gapda esa so'zlar o'zaro birikib fikr ifodalash imkoniyatini yaratib beradi. Lug'at sathini leksikologiya o'rganadi. So'zning ta'rifi, so'z va predmet, so'z va tushuncha, lug'atning o'zgarishi, so'zlarning bir-biri bilan munosabati, lug'atning qatlamlari kabi muammolar leksikologiya o'rganadigan asosiy masalalar hisoblanadi. So'zlarning boshlang'ich ma'nosi va shaklida bo'lgan o'zgarishlarni etimologiya, lug'at va uning tuzilishini leksikografiya, so'zning ma'nosi va uning taraqqiyotini semasiologiya o'rganadi. Frazeologizmlar leksikologiya bilan bog'liq holda o'rganiladi. Tilning lug'at tarkibi bir nechta nuqtayi nazaridan o'rganilishi mumkin. Tilning lug'at qatlamini tarixiylik nuqtayi nazaridan o'z va o'zlashgan so'zlarga ajratish mumkin. Xar bir tilda o'z qatlam so'zleri bilan bir qatorda o'zlashgan qatlam so'zleri ham uchraydiki, bu tilning mavqeyi, ijtimoiy-tarixiy jarayon, xalqlar va tillar o'rtaсидаги turli munosabatlar ta'siri bilan izohlanadi. Lug'at qatlaming ma'lum qismi sheva so'zlaridan iborat. Sheva so'zleri asosiy aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qiladi. Sheva so'zlarining adabiy til lug'atini boyitishda alohida o'rni bor. Tilning lug'at tarkibi iste'mol darajasi nuqtayi nazaridan ham. Bu jihatdan faol va kam ishlatiladigan so'zlar farqlanadi. Tilning lug'at boyligini oshiruvchi asosiy manba so'z yasalishi, shevalardan so'z olish, so'zning ma'no taraqqiyotidagi o'zgarishlar va ma'no ko'chirishlar hisoblanadi. Eng kichik grammatik birlik morfema bo'lib, morfemalardan so'zlar yasaladi, so'zlar esa o'z navbatida so'z birikmali va gaplar qurilishida qatnashadi. Gap grammatikaning yirik va mustaqil birligidir. Gapdan katta birliklar ham mavjud: murakkab sintaktik (birlik) butunlik, abzas va matn.

Praga tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan bajarilgan tadqiqot ishlarida sath tushunchasi ancha mukammal talqin etildi. Mazkur maktab nomoyondalarining lingvistik nazariyalarida, amerikalik strukturalistlardan farqli ravishda, til birliklari taxlili ularning nutqda bajaradigan funksiyalari bilan uzviy bog'liq holda olib borildi. Bundan tashqari, ular ma'no tushunchasidan, ya'ni lingvistik va gramma tik ma'nodan yiroqlashmaydi. Muayyan til birligini, masalan, so'zni kichik birliklarga segmentlash shu birlikning konstitutiv unsurlari haqida ma'lumot beradi. Konstitutiv unsurlar, albatta, tahlil etilayotgan birlik sathidan kichik sathga tegishli bo'ladi. Demak, bu jarayon segmentlanayotgan birlikning formasi xususida ma'lumot beradi. Shu birlik tarkibida jamlanib uning tarkibiy qismini tashkil etayotgan kichik sath birliklari ma'no ifodasi bilan bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganda, muayyan birlikning integrativ xususiyati ma'no ifodasini beradi. Katta birlik ichida kichik birliklar o'zaro ma'lum qoidalar asosida o'zaro birikolmasa, demak, bu o'rinda integratsiya tushunchasi nolga teng bo'ladi. Xolosa qilib aytganda, so'z, morfema va boshqa til birliklari ma'lum predmetni atash bilan birga ular o'rtasidagi munosabatlarni ham aks ettiradi. Biroq, til birliklari o'z referentlariga munosabatini doim saqlab turmaydi. Shu tufayli tilda semantik assimetriya mavjud bo'lib, bu tildagi semantik o'zgarishlarni keltirib chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Xayrullayev X.Z <<Sath tushunchasi va uning lingvistik tabiatি>> “ Til, ta'lim va tarjima” Toshkent 2021. 7-20 betlar
2. Sodiqov A, Abdiazizov A, Irsiqulov M <<Tilshunoslikka kirish>> O'qituvchi, Toshkent 1979. 167-178 betlar
3. Abduazizov A, << Tilshunoslik nazariyasiga kirish>> Sharq, Toshkent 2010. 60-68 betlar
4. Irisqulov M, Tilshunoslikka kirish.- Toshkent: O'qituvchi,1992.
5. Mirtojiev M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. – T.,2000.
6. Mirtojiev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: «Mumtoz soz», 2010. 278– 288 betlar
7. Berdiyorov X., Xo'jayev P., Yo'ldoshev B. Umumiyl tilshunoslik. — Samarqand, 1974
8. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. —T., 1993
9. Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari.-T.,2002
10. Qo'chqortoyev I., Qo'chqortoyeva R “ Tilshunoslikka kirish ” T., 1976.